

O‘TKIR HOSHIMOVNING QISSALARIDA MILLIY PORTRET IFODASI

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi

Buxoro davlat universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada O‘tkir Hoshimov qissalarida o‘zbekona ruh, obrazlarning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi, milliylik kasb etgan xatti-harakatlar vositasida milliy koloritning milliy portredagi tajassumi tahlil va talqin qilindi.

Kalit so‘zlar: milliylik, kolorit, portret, milliy portret, qissa, personaj, obraz, xarakter, tip.

KIRISH. Adibning “Qalbingga quloq sol”, shuningdek, “Sevgi qissalari” turkumidan joy olgan “Cho‘l havosi”, “Sirli yulduz”, “Shamol esaveradi” qissalari ushbu izlanishlarimiz bosh manbasidir. Bu qissalarda sevgining shodlig-u quvonchlari, iztirob va armonlari g‘oyat hayotiy, ta’sirchan aks etgan. Shu sabab ham ular adibning nihoyatda hayajonli asarlar sirasiga kiradi.

ASOSIY QISM

Milliylik – bu xalqning o‘ziga xosligi, madaniyati, an`analari, tili, qadriyatlari va urf-odatlarini orqali namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-falsafiy tushuncha bo‘lib, har bir millatning ma’naviy merosi hamda o‘zligini belgilovchi asosiy omillardan biri. U madaniyat, til, an`ana va urf-odatlar, tarixiy xotira, ma’naviyat bilan bog‘liq jihatlarni ifodalaydi. Milliylikning rivoji esa bugungi globallashuv jarayonida har qanday vaziyatda ham milliy o‘zlikni yo‘qotmaslikka bog‘liq. O‘zbek milliyligining asosiy jihatlari til, madaniyat va san’at (madaniy meros: baxshichilik, maqom, amaliy san’at, milliy kuy va raqslar, me`morchilik (Shohizinda, Imom Buxoriy maqbarasi, Bibixonim masjidi kabi yodgorliklar), urf-odat va an`analar (o‘zbekona to‘y va ma’rakalar, Navro‘z bayrami, osh marosimi uloq chopish), taomlar (o‘zbek milliy oshxonasi– lag‘mon, manti, palov, somsa–ular xalqaro miqyosda ham o‘zbek madaniyati ramziga aylangan),

kiyim-kechak (atlas, adras, alocha kabi milliy matolardan tikildan liboslar, do‘ppi kabi bosh kiyimlar, chust pichog‘i singari ashyolar), qahramonlik va tarixiy meros (yozma va og‘zaki madaniy, ma‘naviy olam xazinalari: A.Temur, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiylar... ijodi), diniy-ma‘naviy qadriyatlar (islom dini, o‘zbekona axloq va qadriyatlar, mehmondo‘stlik, diniy bag‘rikenglik) bilan bevosita aloqador.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy til va so‘z boyligi adabiy tilning ustunligi, sodda va sof ohang, xalqonaligi bilan xarakterlanadi. Chunonchi, xalqona iboralar, maqol va hikmatli so‘zlar, afsona hamda rivoyatlar, ertaklar, she‘r va laparlar birlashib milliy ruhni yanada yorqinlashtiradi. “Dunyoning ishlari”da:

“Oymomoxon xulla,
Qanotlari tilla,
Subhon Ollo sizga,
Umr bersin bizga”. (Oq, oydin kechalar” hikoyasi)

Obkash va oftob haqidagi “Ikki afsona”da, “Haqqush” to‘g‘risidagi afsona, bo‘ri bo‘g‘izlagan shahzoda hamda haj safaridan qaytayotgan otasini urgan o‘g‘il haqidagi Qurbonoy xola ertaklarida xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanish va milliylikning yuzaga chiqishini kuzatamiz.

“Cho‘l havosi”

Adibning dastlabki to‘plam “Po‘lat chavandoz” (1962) ocherklar to‘plami bo‘lganligi uchun tadqiq etish manbamiz sifatida tahlil qilmadik. Shuningdek, “O‘ylar” to‘plami tarkibidagi bahsga undovchi, XX asrning butun xalqimiz, shuningdek, yozuvchi, shoir va shu kabi ijodkorlarimiz hayotidagi yo‘qotishlarni, ijtimoiy-siyosiy qarashlarni, jiddiy hayotiy muammolarning sabab va yechimlari berilgan “Ajdahoga duch kelgan adib”, “Insof”, “Andisha”, “Uvol” kabilar; “Oq kamalak”da hayotiy muammolar, to‘g‘rirog‘i, turmush tashvishlari to‘g‘risida bahs yuritadi.

Adib “To‘rt maktub” hikoyasi asosida keyinchalik “Cho‘l havosi” qissasini yaratdi (1963). Ushbu qissa tarkiban uch maktubni o‘z ichiga oladi. Ushbu xatlar Botirning suyuklisi Ziyodaga yozgan dildagi gaplari, ko‘ngil izhorlari va cho‘lni o‘zlashtirishda Hafiz bilan hamjihatlikda harakat qilishi taassurotlaridan iborat. Asar quyidagi xalqona misralar bilan boshlanadi:

“Xatlar yurak kaptari,

Xatdir ko‘ngil daftari”. (Xalq qo‘shig‘idan)

Yozuvchi bu qissani “birinchi muhabbatim” deya ataydi. Chunki asar adibning nasrdagi ilk katta qadami edi.

Qissada Botir Ziyoda hamda Hafizni sevgi uchburchagi desak, bo‘ladi. Lekin, bu shunchaki o‘ldim-kuydim emas. Bu hoy-u havaslardan, shahvoniy hislardan yiroq haqiqiy muhabbat, do‘stga aylangan ag‘yor hasratlari; xalqiga, kasbiga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ulari bo‘y ko‘rsatgan ajib qissadir. Asar qahramonlari yoshlar, o‘quv yurti talabalari Ziyoda va Hafiz, oddiy haydovchi Botir. U ismiga monand botir va qo‘rqmas yigit. Buni raqibi Hafiz ham tan oladi. Chunki cho‘lda har kim ham toqat ham qilolmaydigan sharoitda qurilishda ishlaydi, shag‘al tashiydi. Botir bunga majbur emasdi. Lekin kimdir, qachondir, qaysidir mashaqqatli ishni boshlamasa, davom ham bo‘lmaydi-da.

“Sirli yulduz” qissasida maktab hayoti, muallimlik mashaqqati, ilm olish kabi ulkan baxt haqida hikoya qilingan. Shuningdek, o‘smir yigitcha bilan qizaloqning bahor shamolidek pokiza, shudring tomchisidek shaffof, olis yulduz kabi ilk sevgisi tasvirlangan. Asar o‘qituvchilikning sharafligini kasb ekanligi, o‘quvchilik ham odob bilan egallalanadigan “lavozim”ligi, maktab davrlarining beg‘ubor yillari, sinfdoshlikning ajib hislari pokiza tuyg‘ular hamrohligida tasvirlangan.

“... Stol yonida Omonulla Rustamovning yig‘ma karavoti. U astronomiya o‘qituvchisi, geografiyadan ham dars beradi. Paxta terimiga hasharga chiqqan to‘qqizinchi sinf o‘quvchilariga Omonulla Rustamov rahbar bo‘lib kelgan. Bolalar uning otini ham, faniliyasini ham aytishmaydi. “Muallim” deb chaqirishadi” [2.171]... Egnida vodolazka, charm kurtka. Domla Hamroyev uni

“shaharlik bodi” deydi. (“Bodi” bo‘lgani uchun paxtagayam charm kurtka kiyib chiqqan). Boshyalang. (Yana o‘sha domla Hamroyevning aytishicha, “jingalak sochini ko‘rsatish uchun” boshyalang yuradi, bo‘lmasa shlyapa kiymasmidi?) “Bodi” bo‘lsayam bolalar uni yaxshi ko‘rishadi” [2.171]

Toshpo‘lat (taxminan besh yoshlarda bo‘lsa kerak–N.X.) yoshligini eslarkan, sinfdoshi Soliyani ko‘z oldiga keltirdi: “...Toshpo‘lat xona burchagidagi kursida qo‘g‘irchoq o‘ynab o‘tirgan, zardo‘zi do‘ppi kiygan qizaloqqa endi e‘tibor berdi. Qizaloq qo‘g‘irchoqning sochini kafti bilan tarar, kulib turardi. Toshpo‘lat hiqqilab-hiqqillab chiqib ketayotganida ham qizaloq kulib qarab qoldi” [2.173].

“...Ko‘rdi-yu, g‘alati bo‘lib ketdi. Yo‘q, bu – o‘zi bilan mol boqib yuradigan Soliya emasdi. U sochini chiroyli qilib turmaklab olgan, oyog‘ida oppoq tufli, egnida atlas ko‘ylak... Toshpo‘lat esankirab qoldi. Nimagadir tomog‘i qaqrab yutindi” [2.174]. “...Toshpo‘lat boshiga oq ro‘mol tang‘ib olgan Soliyani egilib chopiq qilayotganini ko‘rib turar edi...” [2.175].

“...Tabelchi paxtalik kiygan, soqoli tikandek o‘sib ketgan kishi. Shlyapa kiyib yuradi. Yoniga yaqin kelsangiz dimog‘ingizga gup etib vino hidi uriladi. Aftiga qarab yoshini bilib bo‘lmaydi: o‘ttizdami, ellikdami? Bolalardan paxtani tortib olayotganda doim qovog‘ini solib turadi. Ammo qizlarga ko‘zi yiltirab, iljayib qaraydi” [2.177]. Aynan shu tarozibon Toshpo‘latning o‘ttiz kiloli paxtasini o‘n sakkiz kilo deb tarozidan uradi. O‘quvchilarga har tarafdin o‘rnak muallim omonulla Rustamov esa nohaqlikka chidolmaydi, tarozibon bilan tortishadi.

“Gadoning dushmani gado bo‘ladi” deydi dono xalqimiz. Domla Hamroyev ham bolalar mehrini qozongan bilimli va tashabbuskor ustoz Omonulla Rustamovni ketkizish uchun ko‘p harakat qiladi. Ammo o‘quvchilar ham, ularning ota-onalari, butun qishloq ahli muallimni yaxshi ko‘rib qolishgandi.

“...Qayerga bormasin doim ozoda kiyinib yuradi. Domla Hamroyev aytganday “bodi”, bruklar utuklangan, bo‘ynida bo‘yinbog‘i, soqoli qirtishlangan...” [2.188].

Shu o‘rinda yozuvchi qitmir tarozibon hamda fidoiy muallimning ham tashqi ko‘rinishi , ham ichki dunyosini bir-biriga qiyoslagandek, go‘yo. Qissa yulduz kabi endigina porlay boshlagan yoshlarning orzu-istaklari, intilishlarini o‘zida jamlagan. “Bodi” muallimning kasbiy mahorati, astronomiya faniga qiziqish uyg‘otgani sabab avvaliga vrach bo‘lishni orzu qilib yurgan Abdulla Toshpo‘latga o‘xshab kosmonavt bo‘lishga qaror qiladi. O‘quvchilar Rustamov astronomiya darsga kirganda Kvazar – eng katta yulduzligini, turli xilk meteor va meteoritlar, nur va tovush tezligi, yulduzlar turkumi va hokazolar to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar bilan vaqtning qanday o‘tib ketganini ham sezmay qolishardi.

“Shamol esaveradi” qissasi

“– Kap-katta qiz, peshingacha cho‘zilib yotishga uyalmaysanmi?

Gavhar G‘iyos akasining shang‘illab aytgan dashnomlarini uyqu aralash eshitdi-yu ko‘zini ochdi. Akasi eshik yonida turib olib ho‘l bo‘lib ketgan sochini, yuzlarini sochiq bilan artyardi. O‘zini ataylab jiddiy tutmoqchi bo‘lar, ammo mug‘ombirona kulayotgan qisqroq ko‘zlaridan singlisining jig‘iga tekkisi kelayotgani sezilib turar edi.

Boshingni ko‘tarsang-chi, dangasa!

Gavhar to‘zib ketgan qalin sochlarini shosha-pisha o‘rarkan, unga qovog‘ini solib, zimdan qarab qo‘ydi” [2.208].

G‘iyos singlisi Gavharga Mansurning yuborgan xatini topib olganda Gavhar juda yomon holatga tushadi, juda uyaladi: “..Jahli chiqqanidan lablari pirpirab, qoshi chimirilib ketdi. Akasi avval ham uning jig‘iga tegishni yaxshi ko‘rar, ammo hozirgiday ta‘sir qilmasdi” [2.210]. “Gavhar bir lahza oyoqlari titrab ketganini, ayvon ustuniga suyanib qolganini sezdi. Quloqlarigacha lovillab, ikki yuzi o‘t bo‘lib yona boshladi. “Mansur akamning xati!”

“– Senga kim qo‘yibdi yigitlarga salom xat yozishni, tirrancha! – uning ko‘zlari qisilib, Gavharnikiga o‘xshagan qalin, quyruq qoshlarining orasi tutashib ketdi. – Agar g‘ing etib gap chiqsa, ayab o‘tirmayman, bildingmi? [2.211] Gavhar

akasining qo‘lidagi xatni yulqib oldi-yu, o‘z xonasiga kirib, eshikni jahl bilan qars etib yopdi [2.211].

Mansur o‘qishdaligida bemor onasi dunyodan o‘tib qoldi.

“...Quyoshning allalovchi nurlari ostida mangulik uyqusiga cho‘mgan qabrlar yonida tag‘in bir tepacha paydo bo‘ldi. Yaktagining ustidan belbog‘ bog‘lagan odamlar ketmon bilan iliq, namxush tuproqni torta boshlashdi... Muncha tez ishlahmasa, muncha shoshilishmasa bu odamlar!

Mansur yoshligini, onasini eslay ketdi:”...Bir vaqtlar o‘sha mirzaterak ostidagi supada onasi xamir qorardi. Mansur maktab qatnamasdi. Onasi ham yosh, sochi orqasi bilan bitta, ko‘rkam juvon edi. Har gal non yopganda unga atab jajji kulcha yasar, to qo‘llari kuyib tandirdan uzib bermaguncha, Mansur poylab o‘tirardi... [2.214]

“Mansur onasining qo‘shiq aytaganini atigi bir marta eshitgan. Bir kuni u maktabdan qaytsa (o‘shanda u yo oltinchi, yo yettinchi sinfda o‘qirdi) onasi supada, shaparak ko‘rpacha ustida o‘tirib, qo‘l mashinadaish tikayotgan edi. Terak yaproqlari orasidan tushib turgan olachalpak nur supani qizdirar, ayasining peshanasida, qirra burni ustida ter tomchilari yaltirardi. Mashina g‘uv-g‘uv qilar, onasi unga jo‘r bo‘lib qo‘shiq aytardi:

“Otma meni toshlar bilan, aylanayin, yor-yor,
Uchib ketay qushlar bilan, o‘rgilayin, yor-yor,
Qushlar kelsa men kelmasman, men kelmasman, yor-yor...
Ko‘zing to‘lsin yoshlar bilan, yoshlar bilan, yor-yor...”

Mansur o‘shanda birinchi marta vujudi jimirlab, onasiga tiklib qaragan. Chakkasidagi sochlari oqarib qolganini, ko‘zlari cho‘kib, atrofida ajinlar paydo bo‘lganini ko‘rgan” [2.214]

Onalar shundayki, bolasi baxti uchun moli tugul jonidan-da kechishga tayyor, bolasi baxt-u kamoli yo‘lida o‘zining kuchi, vaqti, umri, borlig‘ini bag‘ishlaydi. Ayniqsa, o‘zbek onlarining mehridaryo va bag‘rikengligi to‘g‘risida har qancha e‘tirof bo‘lsa, oz. Bu kabi onalar “Ufq”dagi Jannat xola, “Ikki eshik orasi”dagi Qora amma, Nazira; “Dunyoning ishlari”dagi Halima ayalardir.

“...Onasining aytishiga qaraganda otasi “artis” ekan. Mansur hali esini tanimasdan allaqanday raqqosaga oshiq-u beqaror bo‘lib, Xorazmgami, qayoqqadir ketib qolibdi... [2.215]

Shunday odamlar bor: odamlarning naqshi va yana shunaqalari ham mavjudki, ulardan hayvon ming bora yaxshi. Mansurning ham otasi shunaqa bevafo, loqaydlardan. Allaqanday begonanani deb oilasi, farzandini tashlab ketish hech bir o‘zbek erkagiga xos emas. Zero o‘zbek er-yigitlarining haqiqiysi doim oilani muqaddas sanaydi. Xiyonat ular uchun – eng og‘ir jinoyat.

Adib katta-yu kichik, mavzu va g‘oyasi turlicha bo‘lgan asarlarning barchasida mushtipar ona haqida, mehribon volida to‘g‘risidagi lavhalar mavjud. Chunonchi, “Shamol esaveradi” qissasida ham Mansurning onasi haqidagi o‘ylari shunday: “So‘ng shu paytgacha anglab yetmagan haqiqatni tushundi. Bola jindek betob bo‘lsa, ona sho‘rlik vahimaga tushib qoladi: xuddi bolasi hoziroq o‘lib qoladigandek. Ona kasal bo‘lganda esa bola vahima qilmaydi: xuddi onasini bog‘lab bergandek. Mansur ancha muddat betob yotgan onasining boshida bo‘lolmagani, mehr ko‘rsata olmagan uchun o‘zini o‘zi yomon ko‘rib ketdi.

“Mansur pidjagini o‘t ustiga yechib tashlagan, ko‘ylagini o‘ng yoqasidan maykasi, ozg‘in, chayir yelkalari ko‘rinib turardi.. U iyagini kaftiga tiragancha kunbotar tomonga tikilib o‘tirar, oqshomning kulrang soyasida ko‘zlari yana ham o‘ychan, g‘amgin ko‘rinardi. U ozib, yonoqlari turtib chiqqan, qoraygan edi. Ustki labining ikki burchagida chuqur chiziqchalar paydo bo‘libdi...” [2.216]

...Gavhar jajji chamadon ko‘tarib olgan, atlas ko‘ylak kiygan, boshyalang edi. Zinadan sakrab tushib u yoq-bu yoqqa alanglayotganida sochini bitta qilib o‘rib olganini ko‘rdi... Gavhar Mansurning ancha ozganini, qorayganini sezdi” [2.220].

Ikkovi so‘rashar ekan, yangilklarni aytayotgan Gavhar “Ayamlar nevaralik bo‘ldilar” deydi. Shu “chiroyli” tushuntirish bizdan bo‘lak qaysi xalqda bor? Buni “Kelinoyim tug‘dilar” deb qo‘pol qilib emas, “Kelinoyimning ko‘zlari yoridi”, “Akam farzandli bo‘ldilar” yoki “Men amma bo‘ldim” singari ajoyib jumlar bilan yetkaza olgan qizlarning sarasi, “gavhari”ga tasanno aytsak,

arziydi. Keyin Mansur “o‘g‘ilmi, qizmi” deganda, “Ikkalasi ham...Fotima – Husan” deya qisqa, odob bilan javob qaytaradi.

Shartli ravishda sinov muddati bilan Tal‘atning aralashuvi natijasida taklabalikka qabul qilingan Gavhar paxta terimida ham bildirilgan ishonchni oqlash uchun chin dildan harakat qildi. Tal‘at Gavharga ko‘p marta yordam berishga urindi. Ammo bu yordamlar beminnat emasdi. Gavhar hali buni tovonini og‘ir to‘lashi kerak edi. Muhabbat beg‘araz bo‘ladi, deyishadi. Shuning uchun Tal‘atdagi Gavharga nisbatan tuyg‘ularini beminnat deb bo‘lmasdi. Hatto bir kun Gavharga chang solayotganda, Gavhar nomusini saqlab qoldi. Bu bilan qiz bolaning nomusi har qanday boylikdan, qimmatli narsadan ham, qimmatliroqligini, o‘zini Mansuriga har taraflama munosib ekanini isbotladi. “Ikki eshik orasi”da Robiya ham o‘zini razil Umar zakunchidan o‘zini himoya qila olgan edi.

Qissada shahardagi o‘qishi sabab onasiga vaqtida g‘amxo‘rlik qila olmagan o‘g‘ilning dard-u hasratlari, onasi vafotidan so‘ng Mansurning Gavharga o‘zgacha mehr qo‘ygani, do‘stlari – nihoyatda samimiy Abduxalil va Ziyodalarning Gavhar va Mansurga qilgan g‘amxo‘rliklari, shuningdek, “bir kam dunyo” degandek, Tal‘at ismli aspirantning g‘alamisliklari sabab Gavhar va Mansur hayotida ko‘rguliklar ro‘y bergani hikoya qilinadi. Oliy o‘quv dargohi talabasi bo‘lishni niyat qilgan Gavhardan foydalanmoqchi bo‘lgan Tal‘at niyatiga yetolmadi, ko‘plab asarlardagi kabi shunga o‘xshash sabab bilan qiz yoki yigitning taslim bo‘lib hayoti buzilishi emas, aksincha Gavharning dadilligi va jasorati tufayli Mansur bilan haqiqiy baxtga loyiq ekanliklarini isbot qilishdi.

“Tong sahgardanishga kirishib ketgan qizlarning rango-rang durrachalari, yigitlarning do‘ppisi, kepkasi ko‘rinib qolardi” [2.249].

Tal‘at o‘z-o‘zidan bunday g‘alamis bo‘lgani yo‘q. Bir paytlar Hamida degan o‘zidan yoshi biroz kattaroq qizni yaxshi ko‘rib qolgani, ammo keyin u boshqa yigitga turmushga chiqib, Tal‘atni “o‘z ukasi kabi” ko‘rganinni aytganidan so‘ng, Tal‘at “aldanmaslik uchun aldash kerak” degan aqida bilan

yashaydigan bo‘ldi. Gavhar ana shu aqida qurboniga aylanishi mumkin edi, ammo Gavhar hamisha o‘z nomusi va Mansuriga sodiqligicha qoldi.

“**Qalbingga quloq sol**” qissasi adib ijodida sarlavhasining o‘zida yangi zamon, yangi ruh va zamonaviy fikrlashni ifoda etganligi bilan ajralib turadi.

Xurshid Do‘stmuhammad ushbu asarning yozilishi va aynan shu nomni olishini O‘tkir Hoshimovning adib sifatidagi ulkan gumanizmi [3] deb ataydi.

“...Ostonada Aziza turardi. U boshiga chiroyli sharf o‘rab, shuba kiyib olgan, qo‘lidagi sumkachasini likkilatgancha eshikning bir tavaqasiga suyanib, noqulay jilmayib turar, uning tabassumi kulgidan ko‘ra yig‘ini eslatar edi” [4.145].

Yodgor bir paytlar Azizaning qosh-ko‘ziga uchib sevib qolgan, Aziza bo‘lsa nomusini boy berib ayni shunday bir mo‘minqobil yigitni mo‘ljallab yurgandi. “Aziza Yodgorni har ko‘rganida Sunnatni eslar edi. “Sen birovni aldamasang, boshqalar seni asldaydi. Dunyoning ishlari shunaqa musht ketdi bo‘larkan”, deb o‘ylardi Aziza lallaygan bu yigitni ko‘rib. Bu kabi aqidalar “Shamol esaveradi” qissasidagi Tal‘atning qarashlariga monand. Zero, u ham aldanganlardan edi. Shuning uchun Aziza ham, Tal‘at ham qayta aldanmaslik uchun aldash kerak degan aqidaga ixlosli edilar.

“Sunnat “hozir bu narsalarning unchalik ahamiyati yo‘q” deb yozgan bo‘lsa ham Aziza turmushlari yaxshi bo‘lmasligini his qilardi” [4.208]. Yodgorning hech kimi yo‘q, ichkuyov bo‘lishga munosib nomzodligi bu haqiqatlarni bilgan Azizaning otasiga ham ma‘qul edi. To‘yi kuni yigitlik g‘ururi toptalgan Yodgor, Azizaga rahmi kelgani uchun majbur birga yashab yurdi. Ammo singan ko‘za but bo‘lmadi. Bir kun Yodgor mehmon olib kelganida “Bitta o‘zingni boqqanimiz ham yetadi. Yo‘qot piyanista o‘rtoqlaringni! [4.152]

“Qaynotasi moshrang baxmal do‘ppisini kaftiga qoqib, o‘rnidan turib ketdi:

–Hemiring ham yo‘g‘-u, dimog‘idan eshakqurt yog‘iladi...[4.152]

Bunday haqorat Yodgorni Aziza bilan butunlay aloqalarni uzishiga sabab bo‘ldi. Chunki Aziza va otasi Yodgorning g`ururi bilan o`ynashgan edilar.

Qissada Charosning tog‘asi Avaz, kelinoyisi Tamilla, jiyani Alisher; Yodgorning do‘sti va kursdoshi Zoyirjon, sevgi borasidagi raqibi Dilshod kabi obrazlar mavjud. Asarda Avaz va Tamila yosh oila qurgan, chaqaloqli juftlik sifatida tasvirlanadi. O‘zbek xalqining bolajonligi bunda ham aks etgan.

Narigi xonadan Avazning ovozi keldi:

– Uylanadigan bo‘lsangiz, Yodgorjon, sersutroq qizni tanlang. Hayronman, onasining suti yo‘qligiga men aybdormanmi, har kuni saharlab sut olib kelaman” [4.155].

“Avaz qora kastum kiyib, galstuk taqqan, sochi ho‘llab silliq taralgan yigitni boshlab kirdi. Sovuqdan bo‘lsa kerak, uning yuzi qizarib ketgan, ingichka qoshimi, ko‘zlarimi, nimasidir, qizlarni eslatar edi” [4.155].

Asarda Dilshod Avaz tilidan maktabda fransuz tilidan dars berishi, Yodgor va Zoyirjon esa Avaz talaba do‘stlari ekanligi anglashiladi. Charos ta‘riflanar ekan,”...u nafis pushti rang jemper kiyib olgan, sochi chiroyli turmaklangan, chiroqda ko‘zi qamashganday, kiprikklarini pipirratib jilmayar edi. “...Avaz o‘g‘liga shishadan sut emizar, Zoyirjon Tamila bilan gir aylanar, Dilshod stolga tirsagini tiragancha o‘tirardi [4.158].

Asar qahramonlari asosan yoshlar va ularning kasb-kori ham yoshlarbop, ular yosh oila, talaba yoki endi o‘z o‘rnini topishga urinayotgan kasb egalari. Xususan, toshkentlik Yodgor va buxorolik Zoyirjon, xorazmlik Nurmat bo‘lajak arxitektor, Nargiza ham talaba, Charos teatr va rassomchilik instituti talabasi, bo‘lajak rassom, tog‘asi Avaz aspirant, yangasi Tamila bog‘chada tarbiyachi, Dilshod – o‘qituvchi, onasi esa advokat. Shuningdek, qissaning ikkinchi syujet chizig‘idagi Vasila Nazarova ham ilm dargohi maktabda “zovuch”, ya’ni o‘quv-tabiya ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari. Maktabning 10-sinf o‘quvchilari Dilfuza va Rustamlar ham asosiy qahramonlar.

“Vasila Nazarovna sumkasidan sigaret olib tutatdi. Qo‘li bilan tutunni haydab, Charosga qattiq tikildi... Charos onasining semiz oyoqlarini ko‘rib turar, hozir jahldan ko‘zlari yonayotganini his qilar, ammo boshini ko‘tarmasdi” [4.168-169].

Charosning onasi Vasila Nazarovna matematika fakulteti tugatgan, o'ziga butunlay teskari xarakterdagi ismi jismiga monand Mo'minjonga turmushga chiqdi. Ammo o'qish, ish deb bolali bo'lishni xohlamadi. Hatto bir norasidani oldirib ham tashladi. Eri avvalgi mo'minginaligini tark etdi, Vasila undan ham yaxshisini topmoqchiligini aytdi va Abdurahmon degan amaliyotga kelgan yoshgina talaba yigitga turmushga chiqdi. Ammmo turmushi bo'lmadi. Charos shu ikkinchi turmushidan edi.

Yozuvchi qissada osmon ilmi, tasviriy san'at, arxitektura borasidagi qator masala va muammolarni o'rta tashlaydi. Qissa shunchaki sevgi-muhabbat, maishiy muammolarning kichik ko'rinishlari hosilasi emas, muhim hayotiy voqeliklar va ularda ko'tarilgan masalalar va ularning yechimlariga qaratilgan. Xususan, osmon ilmida Mirzo Ulug'bek va maslakdoshlarining ilmi nujum borasidagi izlanishlari va uning bugungi kundagi ahamiyati, tasviriy san'atda ajdodlar merosini tasvirlab bera olish, qurilish borasida ham sifatli, ko'rkam inshootlar barpo etish, tabiiy ekomuhitni yaratish, bir daraxt kesgan joyga o'n nihol ekish kerakligi kabi jihatlar e'tiborga molik. Chunonchi, "...Yugoslaviyada qadimiy an'ana bor ekan. Har bir yigit voyaga yetganda o'ttiz tup daraxt o'tqazib ko'kartirishi kerak ekan. Bizning ota -bobolarimiz ham joy olish, imorat qurishdan oldin daraxt o'tqazishni odat qilishgan. Buning hayron qoladigan joyi yo'q. Bir daraxt voyaga yetishi uchun kamida bir yigit umri kerak. Holbuki, hozirgi texnika bila uyni tiklash uchun yarim yil kifoya" [4.174]

Darhaqiqat, yuqoridagilar har qanday mamnlakat uchun, uning go'zal tabiati, toza va ozoda ob-havosi uchun nihoyatda muhim masala sanaladi. Arxitektorlikni muqaddas maslagi qilib olgan Yodgor tilidan aytilgan yuqoridagi jumlada hayot haqiqatiga to'la mos keladi. Qissa 1972-yilda yozib tugallangan. Unda 1966-yilgi Toshkentda bo'lgan zilzila yodga olinadi. Oshanda insonlarning bir-birlariga qilgan g'amxo'rliqi, odamiyligi haqida so'z boradi.

" – Menga, ayniqsa, bitta narsa ta'sir qilgandi, – dedi Yodgor o'shanda gazetada o'zi o'qigan xabarni eslab.

– O‘shlik bir qizaloq atlas ko‘ylak olaman, deb yig‘ib yurgan besh so‘m pulini bog‘cha quringlar deb yuboribdi.

Kuybishevlik nafaqaxo‘r kampir nafaqa pulini jo‘natgan ekan. “Toshkentda bir vaqtlar non shahri edi. Rossiyada ocharchilik bo‘lganida, nonini boiz bilan bo‘lishib yegan. Urush yillari yetim bolalarimizning boshini silagan, endi biz ham borimizni Toshkentdan ayamaymiz”, degan ma‘noda xat ham yozgan ekan” [4.179]

Qissada Charosning “Mirob” deb nomlangan bir nuroniy surati ham milliy portretga xos xususiyatlarni o‘zida jamlagan: “... Ariq sohilidagi jiyda soyasida esa misqoli yaktak kiygan oppoq soqolli chol ketmon dastasiga suyanib bukchayib turibdi. U o‘siq qoshlari ostida qisiqroq ko‘zlari bilan charxpalakka o‘ychan tikilib qolgan” [4.143].

Kim biladi, mehnat va mashaqqatdan bukchayib qarib qolgan nuroniy nimalarni xayol qilayotgan ekan?! Balki, umrning o‘tkinchiligini, balki charxpalak kabi aylanayotgan yer kurrasida arzimas bir zarra ekanligimiznimi...?!

XULOSA

O‘tkir Hoshimov qissalarida milliy portret aniq va jonli tarzda chizilgan. U insoniyatning umumiy muammolarini milliy o‘zlik orqali ochib berib, asarlariga o‘zbek xalqining o‘ziga xosligini singdirgan. Shu sababli uning qissalari faqat badiiy-adabiy asar bo‘lib qolmay, milliy ruhning aksidir.

ADABIYOTLAR:

1. Buyuk adibning barhayot merosi. O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligi]/I.G‘ofurov.// Yangi O‘zbekiston. – 2020. – 3-dek. – 2-bet].
2. Hoshimov O‘. Sevgi qissalari [Matn] – T.: “O‘qituvchi”. – 2018. – 296 b.
3. El sevgan adib: O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligiga]/X.Do‘stmuhammad.//Yangi O‘zbekiston. – 2020.– 4-dekabr.–5-bet.

4. Bahor qaytmaydi/ O'tkir Hoshimov. – T.: “Qaldirg'och” nashriyoti”, 2018. – 248 b. Mas`ul muharrir Ashurali Jo'rayev)
5. O'zbek qissalarida poetik ifoda/ U.Rasulova. – T.: Sharq yulduzi, 2022-yil,7-son. – 151-154-bet.
6. Yangi o'zbek qissalarida qahramon masalasi/ N.Cho'lliyeva// Til va adabiyot ta'limi. – 2020. – b.43-44. – N5.
7. Hozirgi qissalarning struktur-semiotik xususiyatlari/ U.Rasulov// Ozbek tili va adabiyoti. – 2019. – N6. – b.68-70.
8. Qissalarda uslub va tasvir mahorati, ma'naviy tarbiyaning badiiy aks etishi/ H.Xudoymurodova. – T.:Til va adabiyot ta'limi, 2022-yil, 9-son. – 29-30-betlar.